

## AFGHANISTAN IS IN THE FOREIGN POLICY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**Yusupova Kamola**

A first-year student of International Relations at the International Islamic Academy of Uzbekistan

[yusupovakamola15@gmail.com](mailto:yusupovakamola15@gmail.com)

+ (998)97 780-24-48

**Annotation:** It is clear that the problem of Afghanistan, which has been influencing international relations for the last decades, has become a topical issue not only regionally but also globally. It is also very important for Uzbekistan, which borders on it. This article focuses on some aspects of Uzbekistan's policy on the situation in Afghanistan.

**Key words:** Afghanistan, Taliban, UN session, good neighborliness, international terrorism, Al Qaeda, international conference.

Alisher Navoiy, Mirzo Bobur, Abu Rayhon Beruniy kabi buyuk bobolarimiz yashab, ijod qilgan Afg'oniston XX asr oxirlariga kelib turli destruktiv guruuhlar to'plangan makonga aylanib qolgani sir emas. XX asr 90-yillari davomida Afg'onistonda ro'y bergan siyosiy jarayonlar, xususan, ichki siyosiy, etnik, diniy nizolar natijasida hokimiyat tepasiga kelgan "Tolibon" harakati mamlakatni yangi geosiyosiy "o'yinlar"ning maydoniga aylantirib qo'ysi. Boshqacha aytganda, tashqi harbiy aralashuv uchun qulay sharoitni vujudga keltirdi.

Tolibon harakat sifatida XX asr 70-yillarining so'ngida yuzaga kelgan edi. Dastavval, toliblar deganda asosan Pokistonning pushtunlar yashaydigan hududlarida (Pokistonning Shimoli-g'arbiy viloyati va Balujiston) joylashgan madrasalar talabalari tushunilardi. Afg'oniston-Pokiston chegara hududlarida afg'on qochoqlarini va mujohidlami tayyorlash uchun maxsus madrasalar ochilgan bo'lib, ulaming aksariyati Pokiston razvedkasi tomonidan Afg'onistondan olib kelingan pushtun millatiga mansub, ota-onasiz qolgan o'g'il bolalar edi. Ular Sovet-afg'on urushida foydalanish uchun Peshovar yaqinidagi lagerlarda harbiy tayyorgarlikdan o'tkazilib, "kofirlarga qarshi harbiy harakat" – jihod olib borishga o'rgatilardi. Bular yuzaga kelayotgan "Tolibon" harakatining negizinitashkil qilgan edi.

"Tolibon" harakatining bir qancha rahbarlari Sovet Ittifoqiga qarshi "jihod"da ishtirok etishgan bo'lsa-da, bu harakat mujohidlarning birlashmasi hisoblanmagan. Ular Pokistonning Shimoli-g'arbiy chegara viloyatida afg'on qochoqlari lagerlarida tayyorgarlikdan o'tgan bo'lib, 1980-yillardagi janglarda nisbatan kam ishtirok etishgan. Chunki, ulamingaksariyati hali yosh o'spirinlar edi. Xususan, bu kabi talabalarning salohiyativa kuchidan "Afg'oniston mujohidlarining islomiy ittifoqi" tarkibiga kiruvchi Muhammad Nabi Muhammadiy boshchiligidagi "Afg'oniston islomiy inqilobi harakati" (AIIH) o'ziga xos "Yoshlar qanoti"ni tashkil etib, sho'ropast AXDP hukumatiga va sobiq Ittifoq qo'shinlariga qarshi kurashda foydalandi.

"Tolibon" harakati asosan qochoqlar lagerlarida tug'ilib, voyaga yetgan yoshlardan iborat bo'lganligini ushbu muammo bilan shug'ullangan pokistonlik jumalist, "Tolibon" muammosi bo'yicha mutaxassis Ahmad Rashid quyidagicha tavsiflaydi: "Bu yigitlar men 1980-yillarda bilgan mujohidlar - o'z

qabila va urug'i haqida batapsil hikoya qilishga qodir, tashlab kelgan xo'jaliklariva vodiysini qo'msab eslaydigan hamda afg'onlar tarixidan afsona va rivoyatlar aytib bera oladigan erkaklardan o'zgacha dunyo edi. Bu yigitlar o'z Vatanini tinchlik vaqtida hech qachon ko'rmaganlar, Afg'onistonni bosqinchilarga qarshi yoki o'z ichidagilarga qarshi urush holatidan boshqa sharoitda ko'rmaganlar avlodidan hisoblanardi... Ular hech qanday ildizga va ishga ega bo'lman, behalovat, iqtisodiy jihatdan benavo, o'zligini zaif anglaydigan aynan urush yetimlari edi..."<sup>1</sup>

Poytaxt Kobul egallangach, Afg'onistonda yana qaltis vaziyat yuzaga keldi. Toliblarga butun Afg'oniston hududini nazoratga olish uchun qo'shimcha resurslar talab qilinardi. Pokiston esa, Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatni buzmaslik uchun, toliblarga hal qiluvchi ustunlikka erishishda ko'maklashmoqchi emasdi.

Pokiston yordam berishni to'xtatganligi bois, "Tolibon" rahbarlari boshqa moliyalashtirish manbaini izlay boshlashdi. O'shanda "Tolibon" harakati yangi daromad manbai sifatida narko-biznesniyo'lga qo'ydi. Jumladan, 90-yillar o'rtalarida Afg'oniston ko'knori yetishtiruvchi va jahon bozoriga qoradori (afyun) va geroin yetkazib beruvchi asosiy mintaqqa bo'lib qoldi. Giyohvand moddalami ishlab chiqaruvchilar va tashuvchilar daromadining 30-35 foizi "Tolibon" harakati budgetiga kelib tushardi. Aynan shu mablag' Afg'oniston ichidagi muxolifat bilan kurashni moliyalashtirish va xalqaro terrorchilik harakatini kengaytirishning asosiy daromad manbayi bo'lib qoldi.

90-yillar ikkinchi yarmida Afg'onistonda juda chigal vaziyat hukm surib turgan bir vaqtida, afg'on sahnasining asosiy ishtirokchilaridan biri sifatida Usoma bin Lordin paydo bo'ldi. U yaratgan "Al-Qaida" xalqaro terrorchilik tashkiloti tarmog'i bu paytga kelib barcha rivojlangan mamlakatlardagi jinoiy, terrorchi va separatchi guruuhlar bilan barqaror aloqa o'matgan edi. Toliblar "Al-Qaida" misolida geroin tayyorlanadigan va uni iste'mol qiladigan geografik jihatdan tarqoq hududlami tutashtiruvchi ko'prikl bo'lish imkoniga ega bo'ldi. Giyohvand moddalar savdosi "Tolibon" harakati uchun o'z faoliyatini moliyalashtirishning ishonchli manbaiga aylandi. Shu tariqa, 1998-yilga kelib toliblar mamlakatning markaziyya shimoliy viloyatlarida nazorat o'matdi hamda 1999-yil boshiga kelib "Tolibon" harakati Afg'oniston hududining deyarli 90 foizini, shu jumladan, aholisining ko'pchiligi o'zbeklar va hazoriylar bo'lgan viloyatlami ham o'z nazorati ostiga oldi. Jahon hamjamiyati esa Afg'oniston Islom Davlati Prezidenti B.Rabboniy boshchiligidagi hukumatni hamon Afg'onistondagi birdan-bir qonuniy hukumat deb tan olar edi.

.Afg'onistondagi iqtisodiy qoloqlik mamlakatda tinchlik va barqarorlikning o'rnatilishiga, xalqning tinch-osuda hayotiga hamda afg'on zaminining keyingi taraqqiyotiga salbiy ta'sir etayotgan omillardan biridir. Buni e'tiborga olgan xalqaro hamjamiyat afg'on xalq xo'jaligini qayta tiklash, shuningdek, xalq ahvolini yaxshilash va uni qashshoqlik botqog'idan qutqarish, markazlashgan hokimiyatning faoliyat yuritishi va davlat xavfsizligini ta'minlovchi organlami shakllantirish kabi masalalami hal etishda, ya'ni Afg'onistonni butunlay qayta tiklashda afg'on hukumatiga har tomonlama yordam berishni va unda bevosita ishtirok etishga kirishdi<sup>2</sup>.

Afg'onistonda tinchlik o'rnatish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarda O'zbekistonning ham alohida o'rni bor. Jumladan, 1995-yil 25-oktabrda Nyu Yorkda BMT ning 50-yilligi munosabati bilan o'tkazilgan

<sup>1</sup> Rashid A. Taliban. Islam, neft i novaya Bolshaya igra v sentralnoy Azii. - M.: Biblion, 2003 - S. 32.

<sup>2</sup> "Afg'oniston tarixi" A.M.Mannonov, N.A.Abdullayev, R.R.Rashidov – Toshkent 2018

anjumanda O'zbekiston respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov nutq so'zlab, Afg'onistondagi keskinlikni hal etish kaliti, eng avvalo, tashqi kuchlarning aralashuvini bartaraf etishdir, degan taklifni kiritdi. 1997-yili Islom Karimov Afg'oniston bilan qo'shni olti mamlakat – Eron, Xitoy, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston, shuningdek, AQSh va Rossiya davlatlari ishtirokida BMT shafeligi ostida afg'on muammosini muzokaralar yo'li bilan yechishgaqaratilgan "6+2" muloqot guruhini tuzish tashabbusi bilan chiqdi<sup>3</sup>. Ushbu tashabbusni amalga oshirish maqsadida qator siyosiy-diplomatik choratadbirlar ko'rildi. O'zbekiston, AQSh va Afg'onistonda mazkur mamlakatda davom etayotgan qurolli to'qnashuvlarning ishtirokchilari bilan maxsus muzokaralar olib borildi va 1999-yilga kelib, O'zbekistonda BMT shafeligida "6+2" muloqot guruhining Afg'oniston muammosi yechimiga bag'ishlangan xalqaro anjumanini o'tkazishga erishildi<sup>4</sup>. Toshkent shahrida bo'lib o'tgan ushbu tadbirda Afg'onistonda o'zaro nifoqlashayotgan kuchlar vakillarini umumiylar muzokaralar davrasida birinchi bor jamlashga muvaffaq bo'lindi. Bu o'zbek diplomatiyasining muhim yutuqlaridan biri edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Afg'oniston Islom Respublikasi Prezidenti Muhammad Ashraf G'ani 2017-yil 4-dekabr kuni rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga keldi.

Mamlakatlar o'rtasida turli sohalardagi hamkorlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan 16 hujjat imzolandi<sup>5</sup>.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z chiqishlarida Markaziy Osiyoda barqaror va mustahkam rivojlanish istiqbollari qo'shni Afg'onistonda tinchlikka erishish bilan bevosita bog'liq ekanini ta'kidlab kelmoqda. Ayni damda Toshkent ushbu davlatga nisbatan afg'on xalqi tomonidan saylangan hukumatni qo'llab-quvvatlagan holda, o'zaro hurmat, teng huquqlilik va bir-birlarining manfaatlarini hisobga olish tamoyillariga asoslangan do'stona siyosatni yuritib kelmoqda.

O'zbekiston Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish va mazkur mamlakatning tinch va barqaror rivojlanish yo'liga qaytishi bo'yicha sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlaydi. Bu yo'nalishda Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2018 yil mart oyida Toshkentda "Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik" mavzuida Afg'oniston bo'yicha yuqori darajadagi xalqaro konferensiya tashkil etilishi muhim voqeа bo'ldi. Forum yakunida qabul qilingan vauchrashuv qatnashchilarining birlashgan pozitsiyalari aks etgan Toshkent deklaratsiyasi<sup>6</sup> Afg'oniston uchun o'ziga xos tinchlik dasturiga aylandi.

Forumda davlatimiz rahbari qator muhim tashabbuslarni ilgari surgan edi. Ularning birinchisi afg'on muammosini tinch yo'l bilan hal etishning asosiy tamoyillarini ishlab chiqish va ular bo'yicha keng va qat'iy xalqaro konsensus – murosaga erishish; ikkinchi – Afg'oniston hukumati va qurolli muxolifat o'rtasida muzokaralarni boshlash mexanizmini ishlab chiqish; uchinchi – Afg'onistonda milliy kelishuv jarayoniga xalqaro hamjamiyat tomonidan ko'mak berish bo'yicha "yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish. Va nihoyat, barcha manfaatdor tashqi kuchlarning qurolli muxolifatdan Afg'oniston hukumati bilan muzokaralar stoliga

<sup>3</sup> "Xavfsizlik va barqarorlik yo'lida" I.A.Karimov – "O'zbekiston", Toshkent, 1998

<sup>4</sup> "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz" I.A.Karimov – "O'zbekiston", Toshkent, 2000

<sup>5</sup> O'zbekiston tarixi 11-sinf darsligi – G'ofur G'ulom, Toshkent, 2018

<sup>6</sup> "Xalqimiz roziligidibzning faoliyatimizga berilgan eng oily bahodir" Sh.M.Mirziyoyev – "O'zbekiston", Toshkent, 2018

o'tirishini, qarama-qarshilik va zo'ravonlikka chek qo'yishni qat'iy va bir ovozdan talab qilishi<sup>7</sup> beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Toshkent konferensiyasi afg'on zaminida tinchlik o'rnatish jarayonlarini ancha tezlashtiradi. Anjumandan so'ng Afg'onistonidagi barcha siyosiy kuchlar, jumladan, "Tolibonlar" harakatini jalg etgan holda, muzokaralar jarayonini yo'lga qo'yish bo'yicha xalqaro sa'y-harakatlar faollahdi. Bu butun afg'on jamiyatini mamlakat tinchligi va ravnaqi yo'lida milliy manfaatlar atrofida birlashtirish muhim ekanini anglash bilan bog'liqdir.

Joriy yil 29-fevralda Doha shahri (Qatar)da Amerika Qo'shma Shtatlari va "Tolibon" harakati o'rtasida Afg'onistonda tinchlik o'rnatish bo'yicha imzolangan bitimni alohida qayd etish joiz. Unda O'zbekiston delegatsiyasi ham ishtiroy etdi. Bizningcha, ushbu tarixiy tadbir dunyo ahamiyatiga ega voqeа bo'ldi. Jahan hamjamiyati afg'on zaminida tinchlik, hamjihatlik va farovonlik yo'lida tarixiy poydevorni qo'yish asnosida O'zbekiston Prezidentining tashabbusi va amaliy sa'y-harakatlari aniq natija kasb etganining guvohi bo'ldi.

Afg'onistonda tinchlik o'rnatishga yo'naltirilgan tarixiy bitimni imzolash marosimiga O'zbekiston tashqi ishlar vaziri boshchiligidagi delegatsiyaning taklif etilishi ham O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi rolining e'tirof etilayotganidan dalolatdir. Dohada bo'lib o'tgan uchrashuvda xorijiy sheriklar aynan Toshkent anjumani o'tganidan so'ng Afg'oniston masalasida amaliy sa'y-harakatlar boshlanganini bir necha bor qayd etdilar. Jumladan, Toshkent deklaratsiyasini amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Kobul bilan kelishgan holda, Afg'onistondagi asosiy yetakchilar hamda "Tolibon" harakati vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazdi.

O'zbekiston ushbu mamlakatning iqtisodiy kelajagi va ijtimoiy barqarorligi poydevorini yaratishga ko'maklashgan holda, Afg'onistonda tinchlik jarayonini qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq loyihalarni ham amalga oshirmoqda. Masalan, "Mazori-Sharif-Hiro" temir yo'l yo'lagining qurilishi ana shunday muhim loyihalardan biridir. U keljakda 30 ming nafar afg'onistonlikni ish bilan ta'minlaydi va Kobulga har yili tranzitdan 400-500 million AQSh dollari miqdorida daromad olish imkonini beradi.

Infratuzilmaga oid yana bir ulkan loyiha – bu Kobulni Markaziy Osiyodagi yagona elektr energiyasi tizimiga ulaydigan Surxon – Puli – Humri elektr uzatish liniyasidir. Ushbu liniya O'zbekistondan Afg'onistonga elektr yetkazib berish hajmini 70 foizga – yiliga 6 milliard kilovatt-soatgacha oshirish imkonini beradi<sup>8</sup>.

Termizda afg'on fuqarolari uchun ta'lim markazi muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Unda 130 nafar talaba tahsil olmoqda. Kelgusida talabalar sonini 250 nafargacha oshirish rejalashtirilmoqda. Shuningdek, Termizda eksport-import va tranzit yuk oqimlarini oshirishga qaratilgan bojaxona terminaliga ega "Termiz-Kargo-markaz" xalqaro logistika markazi ham tashkil etilgan. "Termiz" erkin iqtisodiy zonasini hududida Afg'onistonda amalga oshirilayotgan loyihalar va dasturlar uchun ishlab chiqarishlarni yo'lga qo'yish rejalashtirilgan.

Qatardagi muloqotlarda "Tolibon" siyosiy ofisi rahbari mulla Abdul G'ani Baradar, O'zbekistonning Afg'onistonda tinch siyosiy muhitni qaror toptirish, asosiy maqsadi – mamlakatda afg'on xalqining farovonligi va ravnaqi, Afg'onistonning tinch va barqaror davlat sifatida gullab-yashnashi bo'lgan turli iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish bo'yicha sa'y-harakatlarini alohida qayd etganini ta'kidlash mumkin.

<sup>7</sup> "Xalqaimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir" Sh.M. Mirziyoyev – "O'zbekiston", Toshkent, 2018

<sup>8</sup> "O'zbekiston tashabbusi afg'on zaminida tinchlik-osoyishtalik, taraqqiyot uchun mustahkam poydevor bo'ladi" – A.Xaitov Oliy

Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinnbosari

Baradar, shuningdek, Afg'oniston muammolariga doimiy e'tibor qaratib kelayotgani uchun O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyga samimiyl minnatdorlik bildirdi<sup>9</sup>.

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, O'zbekistonning sa'y-harakatlari tufayli jahon hamjamiyatining afg'on muammosiga e'tibori yana kuchaymoqda. Shuningdek, O'zbekiston Afg'onistonda iqtisodiy loyihalarni amalga oshirishda ham qat'iylik namoyish etmoqda. Davlatimizning Afg'oniston bo'yicha siyosatida nafaqat ushbu mamlakat kelajagi, ayni damda mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash va Markaziy Osiyoning barqaror rivojlanishini ta'minlash masalalari ham o'z aksini topgandir. Afg'onistondagi vaziyat nafaqat mintaqaviy, shuningdek global xavfsizlik masalasi hamdir. Afg'onistonni barqarorlashtirish mintaqaviy hamkorlik me'morchiligini tubdan o'zgartirishga, Markaziy va Janubiy Osiyoning ulkan aloqalarini chuqurlashtirish uchun mutlaqo yangi shart-sharoitlarni yaratishga qodir. Qolaversa, bugungi kunga kelib markaziy Osiyoda vaziyat tubdan o'zgardi. Bu yerda mutlqao yangi siyosiy muhit shakllanmoqda. Prezidentimizning ochiq va izchil siyosati tufayli mintaqada o'zaro ishonchni mustahkamlash, xavfsizlik va barqarorlik muammolarini hal etish, iqtisodiy va madaniy hamkorlikni rivojlantirish uchun qulay vaziyat yuzaga kelmoqda.

### Foydalanimgan adabiyotlar

1. "Afg'oniston tarixi" A.M.Mannonov, N.A.Abdullayev, R.R.Rashidov – Toshkent 2018
2. Rashid A. Taliban. Islam, neft i novaya Bolshaya igra v sentralnoy Azii. - M.: Biblion, 2003 - S. 32.
3. "Xavfsizlik va barqarorlik yo'lida" I.A.Karimov – "O'zbekiston", Toshkent, 1998.
4. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz" I.A.Karimov – "O'zbekiston", Toshkent, 2000
5. O'zbekiston tashabbusi afg'on zaminida tinchlik-osoyishtalik, taraqqiyot uchun mustahkam poydevor bo'ladi" – **A.Xaitov Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinnbosari**
6. "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir" Sh.M. Mirziyoyev – "O'zbekiston", Toshkent, 2018
7. O'zbekiston tarixi 11-sinf darsligi – G'ofur G'ulom, Toshkent, 2018

<sup>9</sup> Xalqaimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir" Sh.M. Mirziyoyev – "O'zbekiston", Toshkent, 2018